


Farg'ona viloyatining  
Tashqi savdo aylanmasi  
(2018 yil yanvar-oktabr)


*Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi, mln. AQSh dollari*

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 1142,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46,9 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 450,8 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 5,5 %) va import hajmi 691,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 97,5 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 240,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018 yilda  
tovarlarning oylik  
eksport-import  
ko'rsatkichlari  
dynamikasi**  
mln. AQSh dollari



2018 yil yanvar-oktabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

Farg'ona viloyatida tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 % oshdi va 56,6 % ga yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-oktabr oylarida 51,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi 48,4 %ga tushdi.

Farg'ona viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)


	Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi		
					ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %	
	Rossiya	298,5	107,8	190,6	26,1	1,7 b	↑
	Xitoy	267,7	95,2	172,6	23,4	1,7 b	↑
	Qozog'iston	229,4	82,7	146,7	20,1	152,6	↑
	Qirg'iziston	81,6	49,0	32,6	7,1	1,9 b	↑
	Turkiya	44,7	27,1	17,5	3,9	82,2	↓
	Koreya Respublikasi	24,3	4,9	19,4	2,1	80,2	↓
	Germaniya	19,7	1,6	18,1	1,7	2,3 b	↑
	Polsha	18,2	17,0	1,3	1,6	106,1	↑
	Bangladesh	15,3	15,3	0,0	1,3	107,7	↑
	Tojikiston	14,2	6,0	8,2	1,2	108,7	↑
	Hindiston	12,2	0,1	12,1	1,1	5,6 b	↑
	Latviya	9,1	1,0	8,1	0,8	132,6	↑
	Turkmaniston	9,1	0,5	8,6	0,8	142,3	↑
	Ukraina	6,8	3,7	3,1	0,6	70,1	↓
	Yaponiya	6,3	0,3	6,0	0,6	4,2 b	↑
	Eron	6,1	3,3	2,8	0,5	46,1	↓
	Italiya	5,8	0,4	5,4	0,5	56,7	↓
	Shveysariya	5,8	0,0	5,8	0,5	3,1 b	↑
	Litva	5,7	1,6	4,1	0,5	2,1 b	↑
	Cehiya	5,5	1,5	4,0	0,5	2,1 b	↑

**Farg'ona viloyat  
eksporti**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi 450,8 mln. AQSh dollarga (o'sish sur'ati 5,5%) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,5 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (36,4 %), shuningdek, energiya manbaalari va neft mahsulotlari (5,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (0,6 %) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>450,8</b>	<b>105,5</b>	<b>100,0</b>	<b>253,7</b>	<b>116,0</b>	<b>100,0</b>	<b>197,1</b>	<b>94,5</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	1,1	9,0	0,2	0,0	-	0,0	1,1	9,0	0,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	164,0	149,5	36,4	158,0	156,8	62,3	6,0	67,3	3,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2,5	5,8	0,6	2,3	7,7	0,9	0,2	1,6	0,1
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	22,9	153,2	5,1	11,8	227,4	4,6	11,1	113,9	5,6
Qora va rangli metallar	0,03	52,1	0,0	0,03	52,1	0,0	0,00	-	0,00
Mashina va asbob uskunalar	0,6	165,2	0,1	0,6	159,6	0,2	0,03	552,2	0,01
Xizmatlar	7,0	126,1	1,5	5,2	142,5	2,0	1,8	94,7	0,9
Boshqalar	252,7	104,9	56,1	75,8	96,3	29,9	176,9	109,0	89,7

**eksport  
tarkibi, %**



Farg'ona viloyatidan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 42,3 % ini tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan  
eksport tarkibi  
(yanvar-oktabr oylari)

(ming. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qozog'iston Respublikasi	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>98350,7</b>	<b>107847,8</b>	<b>64995,2</b>	<b>82680,9</b>
paxta tolasi	0,0	0,0	0,0	0,0
oziq-ovqat mahsulotlari	34239,1	40586,2	54615,2	76548,6
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	3107,8	32,2	1169,3	202,2
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,1	3253,6	3686,2
qora va rangli metallar	0,0	0,0	9,0	7,0
mashina va asbob-uskunalar	344,0	431,5	0,0	10,2
xizmatlar	3621,4	5084,0	2,7	17,9
boshqalar	57038,4	61713,9	5945,5	2208,8

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida jami 158,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 162,0 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o`shish sur`ati 50,7 %).

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2018 yilning yanvar- oktabr oylarida 85,6 ming tonna meva va rezavorlar 119,2 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 36,9 ming tonnaga ko`pdir. Shuningdek, 41,0 ming tonnadan ko`proq sabzavotlar 17,0 mln. AQSh dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 ming tonnaga ko`p miqdorda eksport qilingan.

**Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**



**Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


Davlat nomi	2017 yil yanvar-oktabr			2018 yil yanvar- oktabr		
	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %	ming tonna	mln. AQSh doll.	ulushi, %
Qozog`iston	63,4	53,8	50,1	59,2	75,8	46,8
Rossiya	51,1	33,9	31,6	53,5	40,1	24,7
Qirg`iziston	17,2	10,7	10,0	36,2	38,9	24,0
Afg`oniston	4,0	3,7	3,4	3,3	2,7	1,7
Ukraina	0,4	0,2	0,2	1,7	1,1	0,7
Turkiya	1,2	1,7	1,6	0,7	0,6	0,4

**Farg'ona viloyatining importi**

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 691,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 97,5) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari va neft mahsulotlari (34,1%), kimyo mahsulotlari va mashina va uskunalari (25,2 %) hamda qora va rangli metallar (9,8 %) guruhlariga hisobiga to'g'ri keldi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>691,3</b>	<b>2,0 b</b>	<b>100,0</b>	<b>392,9</b>	<b>2,2 b</b>	<b>100,0</b>	<b>298,1</b>	<b>1,8 b</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	43,9	1,5 b	6,4	31,5	139,6	8,0	12,4	2,0 b	4,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	58,8	135,3	8,5	15,6	2,2 b	4,0	43,3	119,4	14,5
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	236,0	2,4 b	34,1	235,6	2,4 b	60,0	0,4	183,6	0,1
Qora va rangli metallar	67,4	3,1 b	9,8	23,6	2,6 b	6,0	43,8	3,5 b	14,7
Mashina va asbob uskunalari	174,5	1,9 b	25,2	7,0	94,0	1,8	167,5	2,0 b	56,2
Xizmatlar	5,6	1,5 b	0,8	0,2	20,1 b	0,0	5,5	148,7	1,8
Boshqalar	104,8	1,7 b	15,2	79,5	2,1 b	20,2	25,3	107,9	8,5

**Import tarkibi, %**



Xizmatlar importi hajmi 5,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,8 % ini tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 53,3 % ga o`sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo`ldi.


**Farg'ona viloyat  
importida asosiy  
hamkor  
davlatlarning hajmi,  
mln. AQSh doll.**



2018 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatga 67 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Koreya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 562,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,3 %ini tashkil qiladi.

**2018 yil yanvar-  
oktabr oylarida  
tovarlar importi  
dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln.  
AQSh dollari)

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2018 yilning o'tgan davri mobaynida viloyat import qilinayotgan tovarlar hajmi iyun oyida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, sentabr oyida avgust oyiga nisbatan qiymati 67,8 mln. AQSh dollariga kamroq tovarlar import qilindi va 20,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



So'nggi yillarda ichki ishlab chiqaruvchilarimizning tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashlari va ularning eksportga qaratilgan faoliyatini mustahkamlash maqsadida, Hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojhona imtiyozlari va boshqa imkoniyatlarni yaratilishi natijasida korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni olib kirib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi va tashqi bozorlarda o'z o'rinlarini egallashlari uchun zamin yaratilmoqda.